O‘ZBEK TILIDA SON SO‘Z TURKUMI: UMUMIY GRAMMATIK MA’NOSI, LUG‘AVIY-MA’NOVIY GURUHLARI VA ALOQA-MUNOSABAT KATEGORIYALARINING VOQELANISHI

Yorxonova Zarina Botirovna
Amirqulova Sabohat Suyun qizi
Xolliyeva Zuhra Zokir qizi
Shodmonova Marjona Shavkat qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi talabalari
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24414240

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida son so‘z turkumining umumiy grammatik ma’nosi, morfologik va sintaktik xususiyatlari, lug‘aviy-ma’noviy tiplari va guruhlari, hisob so‘zlari bilan munosabati, tuzilish jihatidan turlari hamda aloqa-munosabat kategoriyalarida voqelanishi tahlil etilgan. Maqolada miqdor va tartib sonlarning o‘zaro farqlari, sanoq son tarkibidagi ma’noviy qirralar, hisob so‘zlarining mikrosistemalari, butun, kasr va aralash sonlarning o‘ziga xos jihatlari hamda egalik, kelishik va kesimlik kategoriyalarining son turkumidagi xususiylashuv holatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: son, umumiy grammatik ma’no, morfologik xususiyat, sintaktik xususiyat, lug‘aviy-ma’noviy guruh, miqdor son, tartib son, hisob so‘zi, butun son, kasr son, aralash son, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, kesimlik kategoriyasi

O‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlarini o‘rganish, ularning ichki semantik-grammatik tabiatini aniqlash va gap qurilishidagi sintaktik imkoniyatlarini tahlil qilish tilning tizimli xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday o‘ziga xos so‘z turkumlaridan biri sondir. Son so‘z turkumi predmetlarning sanog‘i, aniq yoki noaniq miqdori hamda tartibini ifodalashga xizmat qiluvchi mustaqil so‘z turkumi sifatida tilimizning morfologik va sintaktik tizimida alohida o‘rin tutadi. Uning umumiy grammatik ma’nosi, lug‘aviy-ma’noviy tasnifi, hisob so‘zlari bilan munosabati, tuzilish jihatidan turlari hamda aloqa-munosabat kategoriyalari bilan bog‘liq xususiyatlari son turkumining ko‘p qirrali mohiyatini namoyon etadi. Sonning so‘z turkumi sifatidagi umumiy grammatik ma’nosi predmetlarning sanog‘i va asosan aniq miqdori uchun ishlatiladigan so‘zlar majmuini qamrab oladi. U sanaladigan predmetlar uchun qo‘llanilganda ularning sanog‘i va miqdorini bildiradi. Bu jihatdan son predmet nomini ifodalovchi so‘z bilan munosabatga kirishib, o‘zining ayrim belgilari bilan sifat va ravish turkumlariga yaqinlashadi. Biroq aniq miqdor bildiruvchi sonlar predmetning noaniq miqdorini ifodalovchi oz, ko‘p, mo‘l kabi sifatlardan keskin farq qiladi, chunki sifat raqam bilan ifodalanmaydi. Son esa noaniq miqdorni bildirgan holatda ham raqam bilan berilishi mumkin, masalan, uch-to‘rt kun yoki 3-4 kun kabi birliklarda ifodalanadi. Bu esa ular anglatgan miqdorning noaniqligi ham nisbiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Agar so‘z matematik son ma’nosida qo‘llanilsa, u faqat sonning nomini bildiradi. Demak, predmet nomini anglatuvchi so‘z bilan munosabatda namoyon bo‘ladigan ma’nosi orqali u son so‘z turkumini tashkil etadi.

Son boshqa so‘z turkumlaridan o‘ziga xos morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Avvalo, sonda o‘ziga xos morfologik ifodaga ega bo‘lgan bir qator grammatik xususiyatlar mavjud. Sanoq songa -(i)nchi affiksining qo‘shilishidan predmetning tartibiga ko‘ra munosabatini ifodalovchi grammatik

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ma'no hosil bo'ladi, masalan, birinchi, o'ninchi kabi. Sanoq songa -ov, -ala affikslarining qo'shilishidan predmetning guruhini, to'dasini ifodalovchi grammatik ma'no yuzaga chiqadi, bunda ikkovi, uchalasi kabi shakllar hosil bo'ladi. Sanoq songa -ta+cha, -lab affikslarining qo'shilishidan predmetning taxminiy hisobini ifodalovchi grammatik ma'no shakllanadi, masalan, o'ntacha, yuzlab kabi. Sanoq songa -ta+dan affikslarining qo'shilishidan esa predmetning taqsimini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi, bunda ikkitadan, o'ntadan kabi shakllar kuzatiladi. Bundan tashqari, sonning hisob so'zlari bilan qo'llanilishi uning o'ziga xosligini belgilovchi muhim belgilardan biridir. Juft, gramm, dona, metr kabi birliklar son bilan birikib, uning miqdoriy va o'lchovli xususiyatlarini aniqlashtiradi. Shu bilan birga, sonning sintaktik kategoriyasi cheklangan holda voqelanadi. Shuningdek, sonlar yasalish xususiyatiga ega emas, lekin sondan boshqa so'z turkumlari yasalishi mumkin, masalan, birlashmoq, ikkilanmoq kabi fe'llar yoki beshlik kabi otlar yasaladi. Sintaktik jihatdan son bir qator barqaror xususiyatlarga ega. U otdan oldin kelib, asosan aniqlovchi vazifasini bajaradi. Garchi sonlarning sintaktik kategoriyasi cheklangan darajada bo'lsa-da, ular gapning barcha bo'lagi vazifasida kela oladi. Son ot oldida aniqlovchi vazifasida kelganda, u bilan birga ajralmas birikmani vujudga keltirishi ham mumkin. Masalan, ikki talaba kelmadi birikuvida ikki talaba ajralmas birikma bo'lib, bitta bo'lak vazifasini bajaradi, ikki so'zi esa o'sha bo'lakning bo'lagi sifatida ishtirok etadi. Agar son va sifatni aniqlovchi sifatida yonma-yon qo'llashga to'g'ri kelsa, avval son, keyin sifat joylashadi, masalan, uchta a'lochi talaba, beshta ilg'or terimchi kabi. Sonning lug'aviy-ma'noviy tiplari va lug'aviy-ma'noviy guruhlari hamda ularga xos lug'aviy shakl hosil qiluvchi vositalar tizimi alohida ahamiyatga ega. Son ma'no va grammatik xususiyatiga ko'ra dastlab ikki lug'aviy-ma'noviy tipga bo'linadi: miqdor son lug'aviy-ma'noviy tipi va tartib son lug'aviy-ma'noviy tipi. Miqdor son lug'aviy-ma'noviy tipi predmetning miqdorini ifodalasa, tartib son lug'aviy-ma'noviy tipi uning tartibini, sirasiga ko'ra o'rnini bildiradi. Bu ikki tip o'zaro muayyan munosabatda bo'ladi. Jumladan, miqdor son ichki lug'aviy-ma'noviy guruhlarga ega bo'lsa, tartib son lug'aviy-ma'noviy tipi bir vaqtning o'zida lug'aviy-ma'noviy guruh ham hisoblanadi. Miqdor sonlar hisob so'zi bilan qo'llana oladi, tartib son esa bunday xususiyatga ega emas. Miqdor sonlar juftlasha oladi, tartib sonda esa bunday xususiyat uchramaydi. Miqdor sonlarga beshdan bir, uchga bir kabi birikmali qo'llanish xos bo'lsa, tartib songa bu xos emas. Bundan tashqari, miqdor sonlar ko'plik shaklini olganda taxminiy miqdor bildiradi, masalan, uchlarda keldi kabi, tartib son esa bunday holatda otlashib ketadi, masalan, birinchilar ya'ni birinchi odamlar tarzida namoyon bo'ladi. Tartib son lug'aviy-ma'noviy guruhi predmetning aniq tartibini, ketma-ketlikdagi o'rnini bildirish, shuningdek, boshqasidan farqini ko'rsatish uchun ishlatiladi. U sanoq songa -(i)nchi affiksining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Ba'zan -(i)nchi affiksi o'rnida -lamchi shakli ham qo'llaniladi, masalan, birlamchi, ikkilamchi kabi so'zlarda bu hodisa kuzatiladi. Tartib son fe'l bilan bog'langanda miqdorni ham anglatishi mumkin, masalan, bu gapni birinchi eshitishim singari holatlarda. Oy kunining tartibini bildirganda esa tartib sonlar vaqt ifodalovchi otlardan oldin keladi: ikkinchi aprel, yigirma uchinchi aprel, o'n sakkizinchi mart, yigirmanchi noyabr kabi. Bunda rus tilining ta'siri mavjud bo'lib, sof o'zbekcha oy kuni hisobi aprelning ikkinchi kuni, noyabrning yigirmanchi kuni shaklida bo'ladi. Shuningdek, tartib sonning sof va ma'nosi toraygan holatlarini farqlash lozim. Odamlarning birinchisi, o'quvchilarning beshinchisi birikmalarida sondagi egalik qo'shimchasidan oldin tushirilgan otni qo'yib bo'lmaydi, shu bois ularda ma'no toraymagan. Birinchi kitobni sen olasan, ikkinchisini men gapida esa ikkinchi tartib sonining ma'nosi toraygan. Miqdor son lug'aviy-ma'noviy tipi va uning lug'aviy-ma'noviy guruhlari predmetni sanash, donalash, taqsimlab yoki taxminlab ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Uning tarkibida sanoq son, dona son, chama son, jamlovchi son va taqsim son lug'aviy-ma'noviy guruhlari ajratiladi. Sanoq son lug'aviy-ma'noviy guruhi predmetni sanash, donalab ko'rsatish uchun ishlatiladi, masalan, ikki qo'lini, uch do'st

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kabi birikmalarda uchraydi. Sanoq son morfologik ko‘rsatkichga ega emas. U ot bilan sintaktik munosabatga kirishganda mustaqil va nomustaqil sintaktik mavqeda bo‘la oladi. Mustaqil mavqeda aniqlanmishdan ayricha so‘roqqa javob bo‘lib, alohida bo‘lak maqomiga ega bo‘ladi, masalan, besh kishi so‘zladi gapida besh aniqlovchi, kishi esa ega vazifasida keladi. Nomustaqil mavqeda esa tarkibiy qism sifatida yuzaga chiqadi, masalan, besh kishi kelishdi gapida besh kishi birgalikda ega bo‘ladi. Sanoq sondan qo‘shma sifat ham hosil qilinishi mumkin: besh yashar bola, uch chaqirimli yo‘l kabi. Sanoq son sirasida bir so‘zining qo‘llanishi va vazifasi jihatidan alohida o‘ziga xosliklar mavjud. U miqdor ma’nosida, noaniqlik ma’nosida, harakat belgisi ma’nosida, mo‘ljal ma’nosida, bir xil ma’nosida, kuchaytirish ma’nosida, navbatma-navbat ma’nosida va o‘xshashlik ma’nosida qo‘llana oladi. Bundan tashqari, bir so‘zi kelishik qo‘shimchalari bilan birikib ravishga o‘tishi mumkin, masalan, jo‘nalish kelishigida birgalik ma’nosida birga ishlash, chiqish kelishigida to‘satdan ma’nosida birdan qichqirib yuborish kabi. Shuningdek, u -day shakli bilan ravish bo‘lib keladi, -ov affiksini olib gumon ma’noli olmosh hosil qiladi, -or/-on affiksini oladi, -gina yuklamasi bilan chegaralash ma’nosini, fonetik o‘zgargan ham yuklamasi bilan kuchaytirish ma’nosini, -oq elementi bilan esa bog‘lovchi vazifasini bajaradi. Bir so‘zi rov, pas, nafas, zum, payt, yil, vaqt, oy, kun, necha, muncha, sidirg‘a, oz, qadar, nima, narsa, qator, talay, xil, ba’zi, har kabi so‘zlar bilan birga kela oladi. Takrorlanib kelganda esa bir-bir, birma-bir, birdan-bir, bir-biridan, bir-biriga kabi shakllarda turlicha ma’nolarni ifodalaydi. O‘zbek tilida bir so‘zi ilk, yakka, yolg‘iz, yagona so‘zlari bilan ma’nodoshlik kasb etadi. Sanoq sonning hisob so‘zi bilan qo‘llanilishi alohida hodisadir. Sanoq son o‘lchov birligini ifodalovchi so‘z bilan birga qo‘llanishi mumkin, masalan, gektar, tanob, tosh, bosh, tup kabi. Bunday so‘z hisob so‘zi, ya’ni numerativ deyiladi. Hisob so‘zi odatda ot turkumidan bo‘ladi va alohida lug‘aviy-ma’noviy guruhni tashkil etadi. U o‘zi birikkan son bilan birga ajralmas sintaktik birlikni hosil qilib, gapda bitta sintaktik pozitsiyadan o‘rin oladi. Hisob so‘zi qadimdan o‘zbek tilida faol qo‘llangan, biroq bugungi kunda ularning ayrimi butunlay iste’moldan chiqib ketgan yoki kam ishlatiladi, masalan, qadoq, jon, tanob, gaz, sarjin, paysa, taxta, enlik, so‘lkavoy, tosh, pud, mahal, yumaloq, mehnat kuni kabi. Gektar, gradus, kilovatt-soat, kubometr, metr, santimetr, millimetr, minut, par, pachka, sotix, sentner kabi hisob so‘zlari esa o‘zbek tiliga XX asrda kirib kelgan. Hisob so‘zi tizimi ochiq sistema bo‘lib, uning lug‘aviy-ma’noviy guruhi quyidagi mikrosistemalardan tashkil topadi: Predmetni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlari: bosh, nafar, dona, nusxa, tup, jon. Predmetni butun yoki to‘daning qismi sifatida hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlari: burda, varaq, luqma, parcha, poy, siqim, tilim, tomchi, to‘g‘ram, chaqmoq, chimdim, shingil, qultum. Predmetni to‘dalab, guruhlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlari: bog‘, gala, guruh, dasta, to‘da, to‘p, shoda, quchoq, hovuch. Predmetni juftlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlariga juft va par kiradi. Predmetning og‘irlik o‘lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlari: gramm, kilogramm, litr, pud, tonna, sentner, misqol, qadoq, botmon, kosa, piyola, qop, qoshiq, quti. Predmetning uzunlik va masofa o‘lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlari: qadam, qarich, quloch, metr, tosh, chaqirim, kilometr. Yosh hisobini bildirish uchun ishlatiladigan hisob so‘zlari: yashar, yoshdagi, yoshli. Vaqt o‘lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlari: asr, yil, kun, kecha-kunduz, oy, hafta, daqiqa, soniya. Qiymat o‘lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlari: so‘m, tiyin, miri, paqir, dinor, dollar, yevro, rubl. Harakat miqdorini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlari: marta, karra, qatla, daf’a, sidra. Dona son lug‘aviy-ma’noviy guruhi -ta qo‘shimchasi va dona, nafar, bosh kabi hisob so‘zlari bilan hosil qilinadi. -ta qo‘shimchali dona son predmetning miqdorini donalab ko‘rsatish uchun ishlatiladi, masalan, bitta bargni kabi birikmada qo‘llaniladi. Bu affiks har qanday son o‘zagiga qo‘shilib kela oladi: to‘qqizta, o‘n to‘rtta, uch yuzta, yetti yuzta kabi, va undan keyin ko‘plik shakli qo‘shilmaydi. Egalik affiksining dona songa

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qo‘shilishidagi o‘ziga xoslik shundaki, bunda uchinchi shaxs birlik hamda boshqa shaxsning ko‘plik shakli faol bo‘ladi, masalan, bittasi, oltmish oltitasi, sizning beshtangiz, bizning o‘ntamiz kabi. Dona son fe’l oldida kelganda tarz ma’nosini ifodalab, gapda hol bo‘lib keladi, masalan, men bitta gapiraman gapida. Yuklama olib chegaralab, ayirib, donalab, kamaytirib ko‘rsatish ma’nosini ham ifodalaydi: to‘rttagina, uchtagina kabi. Dona son ko‘rsatkichi nafar, bosh, jon, dona so‘zlari bilan ma’nodoshlik munosabatida bo‘ladi: bitta va bir dona, o‘nta va o‘n nafar, beshta va besh jon kabi. Chama son lug‘aviy-ma’noviy guruhi -tacha, -lab, -larcha qo‘shimchalari, shuningdek, sonning juft shakli, taxminan, qariyb, taqriban, chamasi, yaqin, kamida, ortiq, mo‘lroq kabi ravish va boshqa turkum so‘zlari orqali hosil qilinadi. Masalan, o‘nta ishchi, millionlab yurtdoshlar, o‘nlarcha mashina, soat o‘n birlar, uch-to‘rt kun, taxminan o‘nta, yuzga yaqin, kamida besh mingta, sakson besh mingdan ortiqroq kabi shakllarda uchraydi. Hisob so‘zi bilan kelgan son -cha qo‘shimchasi bilan chama ma’nosini beradi, masalan, uch yilcha burun, besh kilometrcha kabi. Jamlovchi son lug‘aviy-ma’noviy guruhi bir turdagi predmetning miqdoriy yig‘indisini ifodalaydi va sakkiz sonidan quyi turuvchi songa qo‘shiladi. Ular ikki usul bilan hosil qilinadi: birinchidan, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti sonlariga -ov/-ovlon affiksi qo‘shiladi, bunda ikkovlon, uchovlon, to‘rtovlon, beshovlon, oltovlon, yettovlon shakllari paydo bo‘ladi. Bu shaklli son haqida so‘z turkumlarining ko‘chishi muammosi yuzasidan fikr bildirilgan, jamlovchi son egalik kategoriyasida kelishi mumkin, masalan, beshovimiz, ikkovi kabi, va bu hodisa otlashuv sanalmaydi. Ikkinchidan, ikki, uch, to‘rt so‘zlari -ala qo‘shimchasini olib jamlash ma’nosini ifodalaydi: ikkala, uchala, to‘rtala, beshala kabi. Taqsim son lug‘aviy-ma’noviy guruhi lug‘aviy-ma’noviy guruhga -tadan lug‘aviy shakli qo‘shilishi orqali hosil qilinadi, masalan, bittadan, o‘ntadan kabi. Taqsim son gapda ot yoki fe’l oldidan kelishi mumkin, masalan, o‘ntadan olma, beshtadan oldi kabi. Sonning butun yoki qismni ifodalashiga ko‘ra turlari alohida ajratiladi. Bu jihatdan son uch turga bo‘linadi: butun son, kasr son va aralash son. Butun son narsa-miqdori yoki sanog‘ini uning butun holatida ifodalaydi: bir, yuz, ikki ming kabi. Kasr son butunning bo‘lagini, ulushini ifodalaydi: ikkidan bir, chorak, yarim kabi. Aralash son esa butun va kasr sonning birligidan tashkil topadi, masalan, bir butun uchdan ikki kabi. Sonning butun yoki qismni ifodalashiga ko‘ra turlarga bo‘linishini lug‘aviy-ma’noviy guruhga ajratishdan farqlash lozim.

Aloqa-munosabat kategoriyalarining son turkumida voqelanishi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Son cheklanmagan muchallanuvchanlikka, ya’ni gap bo‘lagi vazifasida kelishga ega bo‘lib, u istalgan gap bo‘lagi vazifasida kela oladi. U kesim vazifasida, ega vazifasida, hol vazifasida, aniqlovchi vazifasida va to‘ldiruvchi vazifasida namoyon bo‘la oladi. Shunga muvofiq, son turkumi egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi va kesimlik kategoriyasini o‘z doirasida voqelantiradi. Egalik kategoriyasi son turkumida keyingi sonni oldingi so‘zga bog‘lash va mansublik, xoslik ma’nosini ifodalash tarzida xususiylashadi. Matn va birikuvchi so‘zning semantikasiga bog‘liq ravishda turli-tuman grammatik ma’no ifodalanishi mumkin, biroq keyingi sonni oldingi so‘zga bog‘lash kategorial ma’no xususiylashmasi sifatida o‘zgarmay qolaveradi. Egalik affiksi o‘zi birikkan so‘zning boshqa so‘z bilan bog‘lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda egalik kategoriyasidagi so‘z qaratqich kelishigidagi so‘z bilan keladi, masalan, olmaning beshtasi, odamlarning o‘ntasi kabi. Egalik kategoriyasidagi so‘z ba’zan chiqish kelishigidagi so‘z bilan ham birga qo‘llanishi mumkin, masalan, odamlardan uchtasi tarzida. Egalik kategoriyasining birlik va ko‘plik shakllari qo‘llanilishida farq bor. Ko‘pincha miqdor bildiruvchi o‘zaklarga birlik son shakli qo‘shilmaydi, masalan, beshtangiz, ikkovimiz kabi. Bu jihatdan uchinchi shaxs egalik affiksi farqlanadi: biri, oltovi kabi. Kelishik kategoriyasi sonda egalik kategoriyasi bilan birga qo‘llanadi. Bosh kelishikdagi son ega vazifasida keladi, masalan, daftarning uchtasi menda gapida. Qaratqich kelishigidagi sonda kelishik kategoriyasining umumiy grammatik ma’nosi sonni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so‘zga

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bog'lash tarzida xususiylashadi, masalan, sigirlardan ikkitasining suti ko'p kabi. Tushum kelishigidagi son gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan son vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. Bunda sonning kelishik kategoriyasi xususiylashuvi sonnga obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash ko'rinishida namoyon bo'ladi, masalan, gulning uchtasini ajratdi kabi. Chiqish kelishigi son turkumida oldingi sonni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash ko'rinishida xususiylashadi. Chiqish kelishigidagi son vositali to'ldiruvchi vazifasida, masalan, qarzni odamning ikkinchisidan so'rang gapida, va o'rin holi vazifasida, masalan, eshigi ochiq narigi xonaning birinchisidan pianino ovozi eshitilmoqda edi gapida kelishi mumkin. Jo'nalish kelishigidagi son ish-harakat yo'nalgan predmetni belgisi bilan anglatadi, masalan, birinchisiga, uchoviga kabi. U gapda to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklar vazifasida keladi, masalan, qo'zilarining uchoviga havaslanib boqdi hamda bola mashinaning birinchisiga yugurdi gaplarida. Ko'rinadiki, jo'nalish kelishigi son turkumida oldingi sonni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash tarzida xususiylashadi. O'rin-payt kelishigi esa son turkumida oldingi sonni keyingi so'zga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash tarzida xususiylashib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'nolarni ifodalaydi, masalan, bizning beshovimizda chora yo'q gapida. Kesimlik kategoriyasi son turkumida ham o'z mohiyatini cheklangan darajada namoyon qilib, ikki ko'rinishga ega bo'ladi: hozirgi zamon ko'rinishi hamda o'tgan va kelasi zamon ko'rinishi. Ko'p hollarda son turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi. Bog'lama kesimlik kategoriyasini son va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so'zlarda yuzaga chiqaruvchi vosita hisoblanadi. To'liqsis fe'l, bo'l, hisoblanmoq, sanalmoq, deyilmoq kabi mustaqil fe'llar sonlarda ham bog'lama vazifasini bajaradi. Kesimlik kategoriyasining son turkumidagi hozirgi zamon ko'rinishi birinchisiman, birinchisisan, birinchisi, birinchisimiz, birinchisisiz, birinchisilar kabi tusga ega bo'ladi. Bunda -man, -san, -miz, nol shakli va -lar kesimlikning barcha ma'nosini yig'iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bo'lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: birinchisi emasman, birinchisi emassan kabi. Ega urg'u olganda esa kesimlikning barcha ma'nolari nol shakl orqali ifodalanadi, masalan, men birinchisi kabi. O'tgan zamonda kesimlik ma'nosi bog'lama vazifasida keluvchi to'liqsiz fe'l va bog'lamalashgan so'z bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi: birinchisi edim, birinchisi eding, birinchisi edi, birinchisi edik, birinchisi edingiz, birinchisi edilar kabi. Bunda ikki shakl, ya'ni edi va shaxs-son ko'rsatkichi kesimlikning to'rt tip ma'nosini ifodalaydi, to'liqsiz fe'l esa zamon, tasdiq, mayl ma'nosini yaxlit yuzaga chiqaradi. Bo'l fe'li bog'lama vazifasida kelib uch zamonni ham ko'rsatishi mumkin: birinchisi bo'laman va birinchisi bo'ldim kabi. Masalan, men shu zavodga ishga kirganlarning eng birinchisi bo'ldim o'tgan zamonni, men shu zavod ishchilarining birinchisi bo'laman hozirgi zamonni, sen shu zavod ishchilarining eng birinchisi bo'lasan esa kelasi zamonni bildiradi. Sanaladi, hisoblanadi so'zlari ham bog'lama vazifasini bajarib, songa kesimlik kategoriyasini moslaydi. Sonning tuzilishiga ko'ra turlari ham o'ziga xos tasnifga ega. Son tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi. Sodda son bir o'zakli bo'ladi: bir, besh, ming, yarim kabi. Murakkab son esa o'z o'rnida uchga bo'linadi: juft sonlar, takroriy sonlar va qo'shma sonlar. Juft son ikki sonning juftlashishidan tashkil topadi va noaniqlikni ifodalaydi, masalan, uch-to'rt, besh-olti kabi. Takroriy sonda bir o'zak takrorlanadi: bitta-bitta, uchta-uchta, beshta-beshta kabi. Qo'shma son esa birdan ortiq mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi: o'n besh, bir ming olti yuz, uch butun beshdan bir, bir yarim kabi.

Xulosa. O'zbek tilida son so'z turkumi o'zining umumiy grammatik ma'nosi, morfologik va sintaktik xususiyatlari, lug'aviy-ma'noviy guruhlari hamda hisob so'zlari bilan bog'liqligi jihatidan murakkab va tizimli birlikdir. Uning sodda, juft, takroriy va qo'shma shakllari, butun, kasr va aralash

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ko'rinishlari, shuningdek, egalik, kelishik va kesimlik kategoriyalarida o'ziga xos tarzda voqelanishi son turkumining tilimizdagi keng funksional imkoniyatlarini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: «Talqin», 2005. – 260 b.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). – Toshkent: «Universitet», 2006. – 476 b.
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020. – 257–267-betlar.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Son_(tilshunoslik)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.